

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

JADIDLARNING TURKISTONDA MILLIY-DEMOKRATIK AVTONOM RESPUBLIKANI TUZISHGA OID QARASHLARI VA AMALIY FAOLIYATI

Agzamxodjaev Saidakbar Saidovich

O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi

*“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori*

Annotatsiya: Maqolada XX asr boshida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati va yo‘lboshchi jadidlarining ilm-ma’rifat va yoshlar ta’lim-tarbiyasini yangilashga oid qarashlari va amaliy faoliyati, shuningdek Turkistonda milliy-xududiy avtonom respublikani tashkil etishga intilishlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidlar, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, milliy matbuot, hayriya jamiyati, milliy tashkilot muxtoriyat,

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, respublika hayotining barcha jabhalarida tub islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. O‘zbek xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilashi milliy tiklanish bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur idrok etishda milliy davlat qurilishi tajribasini ilmiy o‘rganilishi, O‘zbekistonni yangilanish va taraqqiyot yo‘lidagi tajribalarni umumlashtirishni taqozo etadi.

Milliy-demokratik avtonom respublikani barpo etishda ilk tajriba bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati uchun kurash tarixi alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy jamoatchilik e’tiborini o‘ziga jalgan etgan bu tarix hozirda nafaqat ilmiy, balki amaliy va hatto siyosiy qiziqish uyg‘otdi. CHunki uni yoritishda o‘sha yillar voqealariga qayta baho berilmoqda, Turkistonning siyosat, jamoat arboblari va mutafakkirlarining ozodlik va istiqlol uchun kurashdagi faoliyati aniqlanmoqda.

Turkiston Muxtoriyati tarixiga murojaat etish yana bir jihat bilan muhimdir. Xalqimiz tarixiy xotirasida chuqur iz qoldirgan bu kurash tajribasining tahlili bugungi milliy tiklanish jarayonlari, xalqimizning tanlagan yo‘liga e’tiqodi manbalarining qonuniy va ilgarilab boruvchi xususiyatini tushunish imkonini beradi.

2023 yil 11-12 dekabr kunlari Toshkentda o‘tgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” nomli xalqaro konferensiya ishtiroychilariga tabrigida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev quyidagi fikrni ta’kidlab o‘tdi: “Taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi konferensianing asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega” [1].

Demak, O‘zbekiston tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jadidchilik harakatini qayta o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish dolzarb mavzulardan biriga aylandi.

Ma’lumki, muxtoriyatchilik harakatining mafkurachilar bo‘lgan jadidlar Turkistonda madaniy-ma’rifiy, keyinchalik esa siyosiy harakat sifatida tarqalib, o‘z maqsadlarini dunyoviy demokratik davlat qurishdan iborat deb e’lon qilgan edilar. Jadidlar buning uchun davlatning iqtisodiy va siyosiy tizimini isloh etish hamda maorif va fanni taraqqiy ettirishga bel bog‘lagan edilar. Ammo bu yo‘lni tanlash bilan ular milliy va ma’naviy boyliklardan voz kechish emas, balki ular negizida bosqichma-bosqich o‘zgarishlarga erishib shu vaqtgacha xalq fikrida o‘rnashib qolgan eskicha qarashlardan xalos bo‘lmoqchi edilar. CHunki bular davlat taraqqiyoti va xalq ongingin o‘sishiga to‘sinqinlik qilardi.

Jadidchilik Markaziy Osiyo va Evropadagi ilg‘or islohotlar oqimi ta’siri ostida, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga keldi va ijtimoiy taraqqiyotda burilish bosqichini belgilab berdi. Jadidchilik o‘z tarixida ikki bosqichni o‘tgan. **Birinchisi** – ilm-ma’rifatchilik bosqichi va **ikkinchisi** – ijtimoiy-siyosiy bosqich. Lekin jadidlarning davlatchilik masalasiga qarashlari birinchi davrdanoq shakllana boshlangan va ikkinchi bosqichda aniq bir shaklga kelgan desa bo‘ladi. O‘tmishga nazar tashlab, ular, jamiyatdagi barcha salbiy holatlarni milliy davlatchilikning yo‘qotilishi bilan bog‘laganlar.

XX asr boshida Turkistonda jadidchilik harakati Vatanimiz tarixida muhim sahifa ochdi. O‘sha davrning eng ilg‘or kuchlari sanalgan jadidlar bir zamonlar dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘lka jahon taraqqiyotidan ortda qolayotganini teran his qilib, jamiyatni tubdan isloh etishga intildilar. Turkiston o‘lkasini mustamlaka kishani hamda asriy qoloqlikdan ozod etish, mazlum xalq qalbiga ma’rifat ziyosi va erk tuyg‘usini singdirish, jamiyatga baxt yo‘lini ko‘rsatish ma’rifatparvarlarning bosh maslagi edi.

Jadidchilik harakatining etuk siymolaridan **Samarqandda** Mahmudxo‘ja Behbudi, Xoji Muin, Abduqodir SHakuriy, Saidahmadxo‘ja Siddiqiy –Ajziy, **Toshkentda** Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdulla Qodiriy, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, To‘agan Xujamyorov–Tavallo, **Qo‘qonda** Ashurali Zohiriy, Obidjon Mahmudov, **Andijonda** Abdulhamid CHO‘lpon, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jaev, **Namanganda** Ishoqxon To‘ra Ibrat, **Buxoroda** Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Musa Saidjonov, Abdulvohid Burhonov –Munzim, Sadriddin

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ayniy, **Xorazmda** Polvonniyoz hoji YUsupov, Bobooxun Salimovlar va boshqalar xalqqa ziyo tarqatishda, milliy matbuotni rivojlantirishda va milliy davlatchilik qurishda keng qamrovli faoliyat olib borishdi.

Jadidchilik harakatining muhim faoliyatlaridan biri milliy matbuot va jurnalistikaga asos solish bo‘ldi. Jadidlar o‘z davrida xalqning savodxonlik darajasini oshirmsandan, madaniy axloqiy jihatdan xalq ongini rivojlantirmasdan samarali natijaga erishib bo‘lmasligini bilar edilar. SHu sababdan ham asosiy e’tibor xalqning ijtimoiy-huquqiy ongini oshirishga qaratilganligi ham bejiz emas edi.

Jadid namoyandalari sa’y-harakati bilan yangi usuldagagi maktablar, nashriyotlar, kutubxonalar, xayriya jamg‘armalari tashkil qilindi, gazeta va jurnallar ta’sis etildi. Jadidlar 1913-1915 yillarda “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “El bayrog‘i”, gazetalari, “Oyna” jurnalini nashrdan chiqarishgan bo‘lsa, 1917 yilda esa “Ulug‘ Turkiston”, “Hurriyat”, “Najot”, “Kengash”, “Turon”, “Turk eli” kabi ommaviy axborot vositalarini yaratishdi.

Jadidlar o‘zлari tashkil etgan matbuotda o‘z g‘oya-fikrlarini e’lon qilib, xalq orasida keng ma’rifatchilik ishlarini olib borib xalqni «har vaqt g‘aflat uyqusidan o‘yg‘otuvchi», “millat ongining ochqichi” ekanligini namoyon etib o‘lka aholisini hur fikralshga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Milliy matbuot Turkiston o‘lkasida millat manfaati xaqida qayg‘uradigan, ilg‘or tafakkurga ega yangi inson shakllanganini yaqqol namoyon etdi.

Bu davrda “Erk”, “Turon”, “Maorif havaskorlari”, “Taraqqiy parvarlar”, “O‘qituvchilar jamiyat”, “SHo‘roi Islom” kabi uyushma va jamiyatlar tashkil etildi. Jadidlar “**ozodlik, tenglik vaadolat**” shiori ostida ishlarni olib bordilar.

Jadidlar har xil xayriya jamg‘armalarini tashkil etish, boy va badavlat kishilarning ortiqcha mablag‘larini millat va Vatan manfaati yo‘lida sarflashga ham katta e’tibor berdilar. Toshkentda 1909 yilda “Ko‘mak”, 1910 yilda esa “Tarbiyai atfol” va Buxoroda 1913 yilda “Dorul ojizin” xayriya jamiyatları tashkil etiladi. Ularning oldiga qo‘ylgan asosiy maqsad sarmoya topib, jadid maktablariga yordam berish va iqtidorli yoshlarni Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborishdan iborat bo‘ldi.

Demak, ma’rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – **maorif** (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), **san’at** (badiiy adabiyot, teatr) va **matbuot**. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmli - ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga etkazish edi. Turkiston ma’rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi.

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Jadid ma’rifatchilarining erkparvarlik va tashqi siyosiy hamda ijtimoiy aloqalari tizimini o’rganishda Mahmudxo‘ja Behbudiynning ham ahamiyati yuksak bo‘lganligini e’tirof etib o‘tish kerak. Mahmudxo‘ja Behbudiylar olim sifatida tarix falsafasi nuqtainazaridan tarixiy qonuniyatlarni ayrimlarini Turkiston tarixi misolida ko‘rsatadi yoki asoslaydi.

Jadidlarning o‘sha yillardagi beqiyos xizmatlaridan yana biri bu – barcha Turkiston xalqlari va millatlarining qonun oldida tengligi haqidagi g‘oyaning ilgari surilishi bo‘lib, bunga ko‘ra Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va madaniy jabhalarida teng huquqqa ega bo‘lishlari lozim edi.

Jadidlar o‘zlarining kelajakkagi davlat tuzumini **barcha millatlarning birligi** asosida tasavvur etardilar. Bu hakida jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiylar shunday degandi: “Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham, nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman, barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak. Agar biz, Turkiston musulmonlari, birgalikda islohotlar o‘tkazishni istasak, bizning ziyorilar, ma’rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlar millat va Vatan farovonligiga xizmat kilishlari kerak... Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o‘zimizning noittifoqligimizdir!” [2].

1917 yil Fevral demokratik inqilobidan keyingi davr Turkiston xalqlarining siyosiy uyg‘onishi, siyosiy kuchlarining tashkillashuvida muhim bosqich bo‘ldiki, bu kuchlar sobiq Rossiya imperiyasida rivojlanib kelayotgan demokratik kuchlarga tayanib, demokratik Rossiya tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat negizida mustamlaka zulmidan ozod bo‘lish va keng suverenitet asosida o‘z davlatchiligini barpo etish yo‘lida dasturiy faoliyatları bilan ochiqdan-ochiq kurashga kirishdilar. Buning uchun muxtoriyatchilar tomonidan o‘zbek, qozoq, tojik, tatar, turkman va qirg‘izlarni birgalikda ish olib borishlari kerakligi g‘oyasi xalqqa tushuntirildi.

1917 yilda “o‘z taqdirini o‘zi belgilash” g‘oyasi bilan bog‘liq “avtonomiya” so‘zini anglatgan “Muxtoriyat” tushunchasi eng ommaviy iboraga aylangan edi. O‘sha tarixiy davrda jadidlar Rossiyadan ajralib mustaqil rivojlanish nechoqlik og‘irligini va Turkiston qiyin sharoitga tushib qolishini oldindan ko‘zlashgan edi. CHunki Turkiston Rossiya imperiyasi bilan har tomonlama iqtisodiy jihatdan bog‘langan edi. SHuning uchun jadidlar Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi bilan yagona iqtisodiy doirada mustaqil rivojlanishni kun tartibiga qo‘yishgan. Ular Turkistonga keng vakolatli **milliy-hududiy muxtoriyat** berilishining tarafdoi edilar.

1917-1918 yillarda jadidlar milliy-hududiy avtonom respublika, ya’ni **muxtoriyat** tamoyillarini ulkan rivojlantirishning amaliy dasturlarni, Turkistonda

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha sohalar bo‘yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalariga katta e’tibor berishgan. Ammo, shu davr siyosiy sharoiti hamda erli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to‘g‘risidagi qarashlari bir munkha cheklangan edi. M.Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi” dasturida to‘la mustaqil demokratik jamiyat to‘g‘risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutilardi [3].

1917 yilda o‘tkazilgan Umumturkiston musulmonlarining qurultoylarida ham davlatchilik qurilishi to‘g‘risidagi qarashlarda demokratik yoki federativ shakllari to‘g‘risida bahs olib boriladi. Ammo, ularning demokratiya va federatsiya to‘g‘risidagi qarashlari ham aslida konstitutsion monarxiya tuzumidan tashqariga chiqib ketolmasdi [4].

Jadidchi taraqqiyparvarlar hurriyat va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vaqtin etib kelganini anglab mustamlakachilikni qattiq va ayovsiz tanqid qila boshladilar, oldingi konstitutsiyaviy yakka hokimlik (monarxiya) tuzumi g‘oyalardan voz kechib, Turkistonga Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat berilishini talab qila boshladilar.

Muxtoriyatchilarning dastur hujjatlarida asosiy e’tibor milliy-hududiy muxtoriyat tamoyillarini amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqishga qaratilgan edi. Xususan, hokimiyatning yuqori organlarini tashkil qilish, o‘lkani idora etish va o‘lka sudlarini barpo etish, davlat tizimlarini vujudga keltirish kabi zarur bo‘lgan vazifa va masalalar kun tartibiga chiqarilgan edi. Boshqaruv idora usuli sifatida **respublika idora usuli** maqbul deb topildi. Eng ma’qul va maqbul jamiyat deb demokratik jamiyat barpo qilish ko‘zda tutilgandiki, bunday jamiyatda demokratik huquq va erkinliklar konstitutsiyaviy yo‘l bilan himoya etilishi zarur edi.

Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi o‘zlarining g‘oyalarini Turkiston jadidlari hayotga tatbiq qilar ekanlar, bularning hal etilishini mamlakatning turli ijtimoiy kuchlari bilan kelishilgan holda Rossiyada demokratik asosda chaqirilajak Ta’sis Majlisи (Uchreditelnoe sobranie) bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rdilar.

1917 yil 25 oktyabrdan (yangi sana bilan 7 noyabrdan) qurok kuchiga tayangan bolsheviklar Petrogradda Muvaqqat xukumatni ag‘darib tashlab, xoqimiyatni zo‘ravonlik yo‘li bilan egallashdi. Rossianing markazida yuz bergen voqealarning aks-sadosi oradan ko‘p o‘tmay Turkistonga xam etib keldi. 28 oktyabrdan Toshkentning yangi shahar qismida evropalik ishchi va soldatlar bolsheviklarning da’vati bilan qurolli to‘qnashuvlarni boshlab yuborishdi. 1917 yil 1 noyabrdan

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti a’zolari qamoqqa olindi. Toshkentda zo‘ravonlik yuli bilan sovet rejimi o‘rnatildi.

1917 yil 15 noyabrdan bo‘lib o‘tgan III O‘lka ishchi, soldat va krestyan deputatlari s’ezdi tasdiqlagan bayonnomada o‘lkada hokimiyatning oliy organi O‘lka ishchi, soldat va krestyan deputatlari Soveti endilikda Turkiston o‘lkasining Xalq Komissarlari Soveti deb nomlanishini e’lon qilindi.

S’ezd mahalliy aholi vakillarining o‘lka hokimiyat organida ishtirokiga doir aniq bir gapni aytadi: “Hozirgi vaqtda musulmonlarni o‘lka inqilobiy hokimiyatining oliy tashkilotiga kiritish maqsadga muvofiq emas. CHunki mahalliy aholining soldat, ishchi va krestyan sovetlari hokimiyatiga munosabati noaniq, shuningdek, mahalliy aholi orasida proletar sinfiy tashkilotlar yo‘q”. SHunday qilib, s’ezd saylagan hukumat – Xalq Komissarlari Sovetiga o‘lka mahalliy aholisi vakillaridan biror kishi kirmadi [5].

Biroq Turkistonning milliy vatanparvarlari o‘lka taqdiri uchun bunday mas’ul lahzada xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘z davlatchiligini yaratish huquqini amalga oshirishga qaratilgan qat’iy siyosiy pozitsiyada turishdi. Milliy demokratlar sovet hokimiyatiga nisbatan o‘z munosabatlarini darhol namoyon qildilar. Bolsheviklar bilan hamkorlikdan bosh tortish belgisi sifatida milliy demokratiya yo‘lboshchilari Toshkentni tark etib, Qo‘qonga ko‘chib o‘tdilar va 1917 yil 26 noyabrdan IV Favqulodda Umumturkiston musulmonlari qurultoyi, ya’ni s’ezdini chaqirishdi. Bu qurultoy faoliyatining asosiy natijasi Turkiston Muxtoriyati deb nomlangan milliy-hududi avtonom respublika tashkil etilgani e’lon etishdan iborat bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyati o‘lka hududida milliy-demokratik davlatchilikni barpo etishning ilk amaliy tajribasi edi.

Lekin, 1918 yil Fevral oyida Turkiston Muxtoriyatining sovet hokimiyati tomonidan harbiy kuch orqali tugatilishi milliy masalada ziddiyatlarning chigal tugunini yuzaga keltirdi. U bolsheviklarning mahalliy aholi bilan aloqasi yo‘qligini ochiq-oydin ko‘rsatdi va ayni paytda, mintaqadagi milliy ozodlik harakatining kuchli va etukligini namoyon etdi.

1918 yilning Qo‘qondagi fojiali fevral voqealaridan so‘ng ozodlik uchun kurash izchil ravishda ochiq qurolli qarshilik shaklini ola boshladi. Bu bilan Turkistonda bolsheviklashgan sovet hokimiyatiga qarshi ommaviy milliy – ozodlik harakati boshlandi. Milliy ozodlik kurashi an’analari davomini o‘zida namoyon etgan mazkur harakatning xususiyati o‘scha davrdagi “Zolimlarsiz Turkiston uchun!”, “Turkiston – turkistonliklar uchun!” kabi siyosiy talablarida yorqin namoyon bo‘ldi.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, uning siyosiy faoliyati, so‘ngra inqirozi masalalari tarixchi va adabiyotshunos olimlari asarlarida o‘z ifodasini topgan [6].

“МАHMUDХО‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

SHunday qilib, xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jadidlar Turkiston mustaqilligini avvalambor ziyoli bo‘lish orqali ko‘ra olishgan edi. SHuning uchun ham aksari hodisalarda og‘ir-bosiqlik bilan munosabatda bo‘lib, imkon boricha tinchlik yo‘lidan borishga intilishgan. Jadidchilik harakati namoyondalari o‘z davrida Turkistonda bo‘layotgan har qanday voqeа hodisalarни bosiqlik bilan kuzatib, ularga o‘z javoblarini berib borgan bo‘lsalar-da, xalqni zinhor va zinhor isyonga da’vat etishmadi. Buning sababi jadidlar bilishardiki, har qanday isyonlar eng avvalo mana shu xalqning zarariga ishlaydi va albatta xalq turmushini og‘irlashtirishga xizmat qiladi.

Jadidlarning ta’lim va ijtimoiy hayotga doir ilgari surgan fikrlari bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. SHunday ekan, biz jadid bobolarimiz ilgari surgan g‘oyalari asosida mustaqilligimizni yanada mustahkamlashimiz hamda yangi-yangi marralarni zabit etib borishimiz xaqida yosh avlod orasida tushintirish ishlarini olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 11 dekabr, 2023 yil. <https://president.uz/uz/lists/view>
2. Behbudi M. Bayoni haqiqat // Ulug‘ Turkiston. 1917 y. 12 iyun.
3. Behbudi M. Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi. Jahon adabiyoti, 2003 yil. Avgust. B.146.
4. Do‘schoraev B. O‘zbekistonda yangi davlatchilik ma’rifati. Jamiat va boshqaruv, 1997 yil, 2-son. B.13.
5. Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. Т.: “SHark”, 2000. S.77.
6. A’zamxo‘jaev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik uchun kurash tajribasi. -T.: Ma’naviyat, 2000.; Agzamxodjaev S. Istoriya Turkestanskoy avtonomii (Turkiston Muxtoriyati).-T.: Izd.-poligr. Ob’edinenie “Toshkent islom universiteti”, 2006.; Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy Majlis a’zolari hayoti va taqdiri: ilmiy nashr.-Toshkent: “BODOMZOR INVEST” oilaviy korxonasi, 2021.; Alimov D. Jadidchilik fenomeni.- Toshkent: “Akademnashr”. 2022.; Qosimov B. Milliy uyg‘onish. -T.: Ma’naviyat, 2002.; Arslonzoda R.A. Istoriya Turkestanskoy avtonomii v arxivnykh dokumentax (Po materialam Ferganskogo oblastnogo gosudarstvennogo arxiva). Sbornik dokumentov.- Fergana: Classic, 2022.